



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 3-mart, № 42 (9213)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



HUDUDIY RIVOJLANISH SIYOSATINING YANGI MODELI



Munosabat

Investitsiya va sanoat – iqtisodiy transformatsiya omili hisoblanadi. Tashrif davomida taqdim etilgan loyihalarning asosiy qismi sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi hamda xizmatlar sohasini qamrab olganining sababi ham shunda. Xususan, viloyatda 100 mln. tonnadan ortiq ko'mir zaxiralardan samarali foydalanish orqali yangi sanoat quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilmoqda. Bu esa hududning energetik mustaqilligini mustahkamlash bilan birga, ishsizlikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Sanoatlashtirish jarayoni kambag'allikni qisqartirish siyosati bilan uzviy bog'langani bizning yutug'imiz. Prezident tomonidan Termiz shahri, Angor, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq va Muzrabot tumanlarini "kambag'allik va ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirish vazifasi qo'yildiki, ushbu yondashuv ham hududiy rivojlanish siyosatining yangi modelini – manzilli va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni anglatadi.



Onlayn uchrashuv

QONUN IJODKORLIGI SOHASIDA SAMARALI PLATFORMA

"O'zbekiston – Germaniya" va "Germaniya – Markaziy Osiyo" parlamentlararo hamkorlik guruhlarining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Suhbat davomida parlamentlararo hamkorlikni O'zbekiston – Germaniya munosabatlarning ustuvor yo'nalishi sifatida yanada faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Unda Oliy Majlis Senati va Germaniya Bundestagi o'rtasidagi hamkorlik Parlamentlararo Ittifoq va YEXHT Parlament Assambleyasi doirasida tizimli va jadal rivojlanayotgani, "O'zbekiston – Germaniya" hamda "Germaniya – Markaziy Osiyo" hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar qonun ijodkorligi sohasida samarali platformaga aylangani, qo'mitalar o'rtasida muntazam muloqot va o'zaro tashriflar dolzarb masalalar muhokamasiga xizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni, shuningdek, ta'lim va gumanitar sohalarida sheriklikni kengaytirish muhimligiga urg'u berildi.

"Xalq so'zi".

Parlament nazorati

SENATOR SO'ROVIDA TILGA OLINGAN MUAMMOLAR IJOBIY HAL ETILDI

Avvalroq Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova tomonidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi Abdurashid Jo'raboyev nomiga senator so'rovi yuborilgan edi.

Unda teleradiokompaniya tizimida faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilarga munosib va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksa yoshdagi xodimlar uchun infratuzilmaviy qulayliklarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan edi.

So'rov ijrosi yuzasidan ko'rilgan amaliy choralar natijasiga ko'ra, 2025 – 2030-yillarga mo'ljallangan manzilli dastur asosida

kompaniya tizimidagi binolarda bosqichma-bosqich rekonstruksiya va qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda markaziy telekanallar joylashgan 4 ta binoda mukammal ta'mirlash ishlari olib borilib, zamonaviy studiya majmualari barpo etilgan, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari yangilani, texnik jihatdan qayta jihozlangan.



Fraksiyalar hayoti

Dolzarb masalalar – muhokama markazida

Inson qadrini yuksaltirish – ustuvor maqsad

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimizning shu yil 24-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan muloqotida ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar mazkur uchrashuv haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy imkoniyatlar kengaytirilayotganini alohida qayd etdi. Xususan, qo'shimcha mablag'lar, katta miqdordagi imtiyozli kreditlar va startaplar uchun investitsiya kiritishga ruxsat berilishi yigit-qizlarimizni o'z biznes g'oyasini amalga oshirishda muhim omil bo'lishini ta'kidladi.

Har bir hududda yoshlar biznes inkubatorlari tashkil etilib, g'oyadan tayyor mahsulotgacha bo'lgan yo'lda kompleks ko'mak ko'rsatilishi belgilangani, buxgalteriya, marketing, bozorga chiqish va biznes rejalashtirish bo'yicha amaliy yordamlar yosh tadbirkorlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi urg'ulandi.

– Yoshlar bilan muloqotda ularning

taklif va tashabbuslari diqqat bilan tinglangani, aytilgan muammolar joyida hal etilgani Yangi O'zbekiston yoshlarining islohotlarga daxldorligi va xayrixohligini oshirdi, – dedi fraksiya a'zosi Adhambek Ismoilov.

Yig'ilishda davlatimiz rahbarining 26-27-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifining yakunlari muhokama qilinib, bu borada O'zLiDeP fraksiyasi oldida turgan muhim vazifalar belgilab olindi.

Fraksiya a'zolari ushbu tashrif aholiga yanada qulay sharoit yaratish va inson qadrini ulug'lash yo'lida unutilmas voqealarga boy bo'lganini, ayniqsa, belgilab berilgan aniq yo'nalishlar hududni har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy salohiyati yuqori, investitsiyaviy jozibador va aholisi farovon hududga aylantirishga muhim poydevor bo'lishini ta'kidladi.

Shundan kelib chiqib, mahalliy Kengashlar deputatlari bilan birgalikda tashrif davomida ilgari surilgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish ustidan ta'sirchan deputat nazoratini ta'minlash, ushbu jarayonda yanada faol va tashabbuskor bo'lish lozimligi urg'ulandi.

Deputatlar joriy yilning 26 – 28-fevral kunlari fraksiya a'zolarining saylov okruglarida uchrashuvlarining yakunlarini ham ko'rib chiqdi.

Ma'lum qilinganidek, saylov okruglarida deputatlar tomonidan jami mingga yaqin uchrashuvlar tashkil etilib, 1324 ta xonadon, 816 ta MFY, 834 ta tadbirkorlik subyekti hamda 719 ta ijtimoiy soha obyektiga tashrif buyurilgan. Saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqot o'tkazilib, 1008 nafardan ziyod fuqarolar qabuli tashkil etilgan.

– Xalq bilan yaqindan muloqot qilish maqsadida fevral oyining oxirgi haftasida saylov okruglarida bo'lib, fuqarolar bilan uchrashdik, – dedi fraksiya a'zosi Odinaxon Otaxonova. – Uchrashuvlarimiz davomida, avvalo, davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotida ilgari surilgan qator tashabbuslarning ahamiyatini yigit-qizlarimizga yetkazdik. Shuningdek, aniqlangan ayrim masalalar mutasaddilar bilan birgalikda hal etildi.

Yig'ilishda kun tartibidan o'rin olgan barcha masala yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.



Kreativ iqtisodiyot – o'sish drayverlaridan biri

FAKT VA RAQAMLAR



Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot ko'plab davlatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon yalpi ichki mahsulotining **3 – 7 foizi** ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda 2024-yilda kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 3,7 foizni yoki **56,8 TRILLION SO'M**ni tashkil etgan, eksport hajmi esa **770,6 MILLION DOLLAR**ga yetgan, sohada **319 MING NAFAR**dan ortiq aholi band.

2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini **5 FOIZ**ga yoki **145 TRILLION SO'M**ga yetkazish, eksportni **1 MILLIARD DOLLAR**ga olib chiqish, sohadagi band aholini **500 MING NAFAR**dan oshirish maqsad qilingan.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyat muassasalari infratuzilmasini yaxshilash hamda yangi kreativ maydonlarni tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan taqdimotdan.

Hamkorlik

MILLIY TASHABBUSLAR VA GLOBAL QARORLAR

1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib, mustaqil davlat sifatida xalqaro munosabatlarda o'zining suveren va teng huquqli maqomini mustahkamladi. Bu sana mamlakatimiz davlatchiligi uchun huquqiy e'tirofgina emas, balki yangi taraqqiyot yo'lini tanlagan xalqning strategik qarorini anglatadi.

Bugun ushbu sana Yangi O'zbekistonning tashqi siyosat falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Agar 1992-yildagi a'zolik xalqaro huquqiy tan olishni anglatgan bo'lsa, hozirgi vaqtda u global jarayonlarga ta'sir ko'rsatayotgan, o'z tashabbuslarini ilgari surayotgan va qarorlar qabul qilinishiga ta'sir etuvchi davlat maqomini ifodalamoqda.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari – ochiqlik, konstruktivlik, pragmatizm va o'zaro manfaatli hamkorlik. Bu yondashuv BMT Nizomida mustahkamlangan suveren tenglik, tinchlikparvarlik va xalqaro hamkorlik tamoyillari bilan uyg'un.

Qisqa vaqtda mamlakatimiz BMT tizimidagi yetakchi institutlar bilan samarali sheriklikni yo'lga qo'ydi. BMTning Taraqqiyot dasturi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlarida ishtirok etmoqda. YUNISEF yurtimizda bolalar huquqlari va inkluziv ta'limni rivojlantirishda muhim sherik hisoblanadi. YUNESKO bilan hamkorlik milliy madaniy merosimizni jahon miqyosida e'tirof ettirishga xizmat qilmoqda.



Muloqot

Sirdaryoda "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini kunlari

So'z – mas'uliyat, so'z – ishonch. Shu bois matbuot jamiyat bilan davlat o'rtasida mustahkam ko'prik bo'lib xizmat qilib kelmokda.



Guliston davlat pedagogika instituti va Sirdaryo viloyati axborot-kutubxona markazida o'tkazilgan "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini kunlari tadbirlarida so'z qadri, undan foydalanish mas'uliyati, bu bebaho ne'matning odamlarda erangi kunga ishonchni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida fikr yuritildi.

"Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini tahririyati va Sirdaryo viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur ijodiy uchrashuvlar O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi hamda "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini tashkil etilganining 35 yilligiga bag'ishlandi. Muloqotlarda gazetalarining ko'p yillik mushariylari, yoshlar, ziyolilar jam bo'ldi.

Tadbirida tahririyat faoliyatida keyingi yillarda amalga oshirilgan yangilanishlar haqida ma'lumot berildi. Qayd etilganidek, bugungi axborot makonida tezkorlik, aniqlik va xolislik asosiy mezonga aylangan. Shu bois gazetalar mazmun-mohiyatini zamon talablari asosida boyitish, tahliiliy materiallar salmog'ini oshirish va dolzarb ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uchrashuvlarda so'zga chiqqanlar aholini xolis va ishonchli axborot bilan ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini katta hissa qo'shib kelayotganini e'tirof etdi.



HUDUDY RIVOJLANISH SIYOSATINING YANGI MODELI



Agrar soha salohiyati bo'yicha Surxondaryo boshqa hududlarga qaraganda ancha ustunlik qiladi. Shu bois endilikda bog'dorchilik, uzumchilik hamda klaster tizimini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Sarosiyo va Uzun tumanlarida tog'oldi hududlaridan samarali foydalanish, Oltinsoyda uzumchilik klasterlarini rivojlantirish, Denovda savdo-xizmat xabini tashkil etish kabi hayotiy tashabbuslar "Janub gavhari"ning iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga

yordam berishi, shubhasiz.

Ayniqsa, Termiz tumanida joriy etilgan "Tomorqa maktabi" tajribasini kengaytirish, aholi tomorqalaridan yil davomida uch marta hosil olish amaliyotini ommalashtirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu chora-tadbirlar oilalar daromadini oshirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Viloyatning geografik joylashuvi uni mintaqaviy transport va savdo

tizimida ko'plab istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Xususan, M-41 "Termiz – Dushanbe" avtomagistrali nafaqat viloyat aholisi, balki xalqaro tranzit yuk tashish tizimi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Shu bois mazkur yo'lining holatini tubdan yaxshilash, zamonaviy standartlar asosida rekonstruksiya qilish hamda kengaytirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

Qolaversa, infratuzilma modernizatsiyasi iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan "ko'paytiruvchi

samara" (multiplier effect) ni ta'minlaydi. Ya'ni transport xarajatlarning qisqarishi mahsulot tanmarxini pasaytiradi, eksportboplikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga kabi loyihalar ham hayotga izchil tatbiq etiladi. Bularning barchasi inson manfaati hamda farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan kengroq namoyon etaveradi.

Firdavs QURBONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

qadri uchun" tamoyilidir. Shu ma'noda, iqtisodiy islohotlar bilan birga, ichki yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi loyihalar ham hayotga izchil tatbiq etiladi. Bularning barchasi inson manfaati hamda farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan kengroq namoyon etaveradi.

Firdavs QURBONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Taraqqiyotimizning asosiy tayanchi

Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi vohamiz taraqqiyotiga yuksak e'tibor va ishonchning yaqqol ifodasi bo'ldi. Davlatimiz rahbari viloyatimizni katta salohiyatga ega, mehnatkash va tashabbuskor insonlar yashaydigan hudud sifatida e'tirof etdi. Chindan-da, strategik joylashuv, boy tabiiy resurslar va yoshlar salohiyati viloyatni mamlakatimizning tayanch hududlaridan biriga aylantirishga xizmat qilayotir.

Darhaqiqat, hududda olib borilayotgan islohotlar qisqa fursatda sezilarli natija bermoqda. Buni ko'pgina sohalarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan ham bilsa bo'ladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Surxondaryo bugun o'zgaryapti, eng muhimi – odamlarning dunyoqarashi, tashabbusi va ishonchi oshmoqda". Mamlakatimiz yetakchisi qaysi hududda bo'lmasin, avvalo, kelajak avlodlarimiz bo'lgan yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Surxon vohasiga tashrif davomida ham yosh avlod



ta'lim-tarbiyasini yuksaltirish, zamonaviy bilim va kasb-hunar egalarini tayyorlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qarab, ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi islohotlarga yangi sur'at bag'ishlash uchun qator takliflar berdi.

Xususan, maktablarda yaratilayotgan sharoitlar, o'quv jarayonlarining sifati, o'qituvchilarning mehnatini munosib rag'batlantirish masalalari muhkama qilindi hamda ta'lim sifati, avvalo, pedagoglarning bilim va mas'uliyatiga bog'liqligi ta'kidlanib, ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekani qayd etildi. Shu bilan birga, qishloq joylarida yangi maktablar qurish, mavjud ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, zamonaviy laboratoriya va axborot texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha aniq topshiriqlar berildi. Yoshlarning chet tillarini o'rganishi, raqamli bilimlarni egallashi va kasbga yo'naltirilishi masalalariga alohida urg'u qaratildi.

Shu maqsadda endi viloyatda O'quv markazlari uyushmasi tashkil qilinib, bu uyushmaga 100 million dollar mablag' jalb etilishi aytiladi. Ushbu mablag'lar o'quv markazi tashkil qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga arzon kredit, subsidiya, joy jirasining kompensatsiyasi uchun yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Surxondaryoning mehnatkash xalqi, boy tabiiy va insoniy salohiyatiga alohida to'xtalib, viloyatning kelajagi bilimli va kasb-hunarli yoshlarga bog'liq ekanini qayd etdi. Bilimli va tashabbuskor avlod – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tayanchi. Shu bois Surxondaryoda oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, hudud ehtiyojidan kelib chiqib yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Prezidentimiz tashrifi Surxondaryoning taraqqiyot yo'lini yanada mustahkamlab, kelgusida uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga kuchli turtki berishi, voha ahlining ertangi kunga ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Dilbar NORMURODOVA, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi raisi.

«Janub gavhari»dagi gangilanishlar bardavom

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar bugun xalqimiz hayotida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Yangi O'zbekistonning janubiy tayanch nuqtasi hisoblangan Surxondaryoda ham.

Viloyatdagi tub o'zgarishlarni ushbu raqamlar yanada oydinlashtiradi. Jumladan, o'tgan qisqa davrda 5 mlrd. dollarlik 8 mingdan ortiq loyihalar ishga tushirildi. Iqtisodiyotda sanoatning ulushi besh karra o'sdi. O'tgan yili yalpi hududiy mahsulot hajmi 63,7 trln. so'mga yetdi. 2,1 mlrd. dollar qiymatidagi xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, dunyoning qirqa yaqin davlatlariga 483 mln. dollarlik mahsulot hamda xizmatlar eksport qilindi.

Bunday o'zgarishlarga har sohada o'nlab, yuzlab misollar keltirish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarni yana bir necha barobar oshirish joiz. Buning uchun esa ishga solinmagan imkoniyatlar juda ko'p.

Davlatimiz rahbari ikki kun davomida ushbu hududda kechayotgan islohotlar jarayoni bilan tanishib, viloyatni yanada rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan aniq taklif hamda tashabbuslarini ilgari surdiki, bundan vohaliklar juda mamnun.

To'g'ri-da, quvonmay bo'ladimi? Tashrif doirasida viloyatda umumiy qiymati 7,1 mlrd. dollar bo'lgan 44 ta loyiha ishga tushirildi. Yana 6 mlrd. 300 mln. dollarlik 31 loyiha bo'yicha qurilish ishlariga start berildi. Bu minglab yangi ish o'rinlari, qo'shimcha daromad, yangi bog'chalar, maktab va zamonaviy tibbiyot markazlari, degani. Bunday istiqbolli loyihalar hududda kambag'allikni, ishsizlikni kamaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. Ayniqsa, Termiz shahri, Angor, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq va Muzrabotni "kambag'allik va ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryoning o'ziga xos jihatlar haqida gapirganda, avvalo, viloyatdagi qulay iqlim sharoiti hamda dehqon-fermerlarning tashabbuskor hamda mashaqqatli mehnatini e'tirof etish joiz. Bu hudud mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Viloyatdagi mavjud tomorqalarning 35 ming gektarida 3-4-marta hosil olish mumkin va bu holat boshqa viloyatlarda deyarli takrorlanmaydi.

Hatto Termiz tumanidagi "Tomorqa maktabi"da tomorqaga ilm bilan yondashib, bir yilda 5-martagacha ekin ekish o'rgatilyapti. E'tiborli jihat, shu kungacha 1300 nafarga yaqin ishsiz hamda kambag'al oila a'zosi maxsus kurslarni tugatib, o'z tomorqasi yoki ijara yerlaridan samarali foydalanish orqali o'zini o'zi band qilgan. Shuningdek, viloyat sharoitida issiqxonadan mahsulot olish boshqa joylardan 2-3 barobar arzoniga tushadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugun milliy iqtisodiyotimizning drayver sohasiga aylangan turizm rivojida ham vohaning o'ziga xos o'rni bor. Hisob-kitoblarga ko'ra, 150 dan ortiq madaniy meros obyektlari joylashgan viloyatda turizm salohiyatidan samarali foydalanilsa, yiliga 1 milliard dollarlik tushum qilsa bo'ladi.

"Janub gavhari"dagi gangilanishlar haqida yana uzoq gapirish mumkin. Surxon elining Yangi O'zbekiston kelajagi, ortga qaytmas islohotlariga bo'lgan ishonchi, yoshlarimizning g'ayrat-shijoati baland. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, vohaning mehnatkash va tanti eli bilan hududda hali ko'p e'zgu ishlar, hayotiy tashabbuslar amalga oshiriladi. Zero, mazkur o'lkada ruhi baquvvat, g'ayrati baland, oriyati mustahkam insonlar yashaydi.

Nigora LUTFULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



SUV – HAYOT MANBAI, FAROVONLIK TIMSOLI

Inson iste'mol qilayotgan suv uning salomatligiga, umr davomiyiligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari hududlarga tashrifi chog'ida aholi turmushi bilan tanishar ekan, avvalo, mahallalarning toza ichimlik suvi bilan qay darajada ta'minlanganini so'rab-surishtirishi boisi ham shundan.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ham bu masalaga to'xtalib, 2025-yilda qo'lga kiritilgan muhim yutuqlarimiz qatorida 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashayotgan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib borganligini mamnuniyat bilan tilga oldi. Ushbu raqamlar zaminida keng qamrovli bunyodkorlik ishlari mujassam, albatta.

Xususan, o'tgan yilning o'zida qariyb 12 trln. so'm evaziga 2 ming kilometrdan ortiq ichimlik va 527 kilometrga yaqin oqova suv tarmog'i hamda 134 ta suv inshooti qurildi. Jumladan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 2 trln. 250 mlrd. so'mdan ortiq mablag' o'zlashtirildi.

Masalan, Nukus shahridagi suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish natijasida 77 ta mahallada yashovchi 350 ming nafar aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvi sifati yaxshilandi. Shaharning suv bilan ta'minlanganlik darajasi 100 foizga yetdi.

Shu bilan birga, "To'polang suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyati suv ta'minotini yaxshilash" loyihasining ikkinchi bosqichi doirasida Bandixon, Oltinsoy tumanlari va Termiz shahrida qurilish-montaj ishlari olib borildi. 125

kilometrdan ortiq magistral hamda 14 kilometrdan ziyod ichki suv tarmoqlari tortilib, umumiy sig'imi 20 ming kubometr bo'lgan 2 ta suv taqsimlash inshooti va 1 ta nasos stansiyasi qurildi. Endilikda viloyatning Oltinsoy, Qiziriq, Sherobod, Angor, Bandixon va Muzrokod tumanlari hamda Termiz shahridagi 112 ta mahalla aholisining suv ta'minoti borasidagi muammolari to'liq bartaraf etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan hafta Termiz shahrida "To'polang" suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash loyihasining amaliy natijalari bilan tanishdi. Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ushbu 287 mln. dollarlik megaloyiha ham sohada erishilayotgan natijalardan biri sanaladi.

Mazkur tashabbus doirasida o'tgan yillar davomida katta hajmdagi qurilish, montaj ishlari amalga oshirildi. Zamonaviy mexanizmlarning yo'lga qo'yilishi natijasida bugun minerallarga boy ichimlik suvi viloyatning o'ta tumani va Termiz shahriga uzluksiz yetkazib berilyapti.

Surxondaryoda markazlashgan ichimlik suvi bilan qamrov sakkiz-to'qqiz yil oldin 47 foiz edi. Bugun ushbu raqam 67,5 foizgacha oshishiga erishildi. Natijada aholining suv ta'minotidagi holati nafaqat

miqdor, balki sifat jihatdan ham sezilarli yaxshilandi.

Prezidentimiz bu kabi yirik energetik, texnologik va ijtimoiy samarador loyihalarni qo'llab-quvvatlash har jihatdan zarurligini ta'kidladi. Bunday tajribalarni kelgusida mamlakatning boshqa hududlarida ham qo'llash mumkinligiga e'tibor qaratdi.

Suv ta'minoti bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirishga xalqaro

Sohani raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham o'z natijasini bermoqda. Xususan, "Suv dispatcher" tizimi to'liq ishga tushirilib, avariya-tiklash guruhlari harakatlari real vaqtda optimallashtirildi. Yuridik iste'molchilar billigi "Uzwater"ga integratsiya qilinishi, shaxsiy kabinetlar orqali shartnoma va hisoblagich ma'lumotlariga onlayn kiritilishi ta'minlandi. Shuningdek, "Suv"ochagich xizmati" AJ axborot



moliya institutlari mablag'lari ham keng jalb etilmoqda. Xususan, o'tgan yili xorijiy investitsiyalar hisobidan umumiy summasi 434,8 mln. dollar bo'lgan 21 loyiha to'liq ishga tushirildi. Jumladan, Nukus tumanining ichimlik suvi tizimlarini yaxshilash maqsadida Osiyo taraqqiyot bankidan ajratilgan 11,4 mln. dollar kredit mablag'lari evaziga 3 ta suv taqsimlash inshooti yangidan barpo etildi, 1 ta suv taqsimlash inshooti rekonstruksiya qilindi, 12 mahallaga suv tarmoqlari tortilib, 6 150 ta xonadonga zamonaviy suv hisoblagichlar o'rnatildi. Buning natijasida yiliga 482 ming kVt. elektr energiyasi iqtisod qilinishiga erishildi.

tizimi joriy qilinib, yangi murojaatlarni 100 foiz elektron shaklda qabul qilish yo'lga qo'yildi. Iste'molchilar bilan ishlash va korrupsiyaga qarshi yangi raqamlashtirilgan "KPI" tizimi joriy etildi.

2026-yilda ham bu borada katta ishlar amalga oshiriladi. Oldimizga qo'yilgan vazifa – 107 ta mahallada istiqomat qiluvchi 310 ming aholini ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda 453 ta mahalladagi 2,4 mln. aholining suv ta'minotini yaxshilash orqali respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 83,5 foizga yetkazish.

Shuningdek, joriy yilda 51 mahallada istiqomat qiluvchi 230

ming nafar aholini ilk bor oqova suv tizimlariga ulash hamda 23 ta mahalladagi 95 ming nafar aholiga ko'rsatilayotgan oqova suv xizmatlarini yaxshilash evaziga qamrovni 23 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Shu maqsadda davlat dasturlari doirasida joylarda qariyb 1 014 kilometr ichimlik va 97 kilometrdan ortiq oqova suv tarmoqlari, 64 ta ichimlik hamda 25 ta oqova suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan 23 ta loyiha doirasida 572 kilometr ichimlik va 290 kilometr oqova suv tarmoqlari tortildi, 16 ta ichimlik hamda 4 ta oqova suv inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Joriy yilda ko'zda tutilgan marralarimiz qatorida mavjud 10 ming kilometrdan ziyod tashqi va ichki oqova suv kollektorlarini yuvish va tozalash ishlarini amalga oshirish, 49 183 ta xonadonga suv tarmoqlarini olib kirish va ularga suv hisoblagichlari o'rnatish, 1 248 ta zamonaviy suv hisoblagichlarini inshoot va tarmoqlarga o'rnatish kabi ishlar turibdi.

Eng muhimi, suv ta'minoti tizimida olib borilayotgan islohotlar aholining turmush darajasini yanada yaxshilashda hal qiluvchi rolga ega bo'lib, bu boradagi ishlar muntazam davom ettiriladi.

Ahmad SUVONQULOVA, "O'zsvuta'minot" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi.

1 2 3 4 5 6